



XALQARO TAJRIBA VA MODELLAR (YEVROPA, AQSH JANUBIY KOREYA) TAJRIBASI

Iqtisod fanlari doktori (PhD)

Olim Xayrullayev Itolmasovich

Yuldashev O'tkirjon Ibragimovich

Xalqaro innovatsion universitet, Iqtisodiyot va moliya kafedrası

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Anontatsiya: Ushbu maqolada Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tajribasi hamda ularda qo'llanilayotgan asosiy rivojlanish modellari tahlil qilingan. Maqolada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, liberal bozor modeli va davlat boshchiligidagi industrial rivojlanish modelining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur mamlakatlarda ta'lim, innovatsiya, inson kapitali va davlat siyosati rolining iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini milliy sharoitlarga moslashtirishning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola materiallari iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlar sohasida tahsil oluvchi talabalar hamda tadqiqotchilar uchun foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro tajriba, rivojlanish modellari, Yevropa mamlakatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bozor iqtisodiyoti, innovatsiyalar, inson kapitali, davlat siyosati.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт социально-экономического развития европейских стран, Соединённых Штатов Америки и Республики Корея, а также основные модели развития, применяемые в этих странах. В статье раскрываются особенности социально ориентированной рыночной экономики, либеральной рыночной модели и модели индустриального развития под руководством государства. Также показано влияние образования, инноваций, человеческого капитала и роли государственной политики на экономический рост в указанных странах. По результатам исследования обоснована важность адаптации опыта развитых стран к национальным условиям. Материалы статьи представляют интерес для студентов и исследователей в области экономики, государственного управления и международных отношений.

Ключевые слова: Международный опыт, модели развития, европейские страны, Соединённые Штаты Америки, Республика Корея, социально-экономическое развитие, рыночная экономика, инновации, человеческий капитал, государственная политика.



Annotation: *This article analyzes the socio-economic development experience of European countries, the United States of America, and South Korea, as well as the main development models applied in these countries. The article highlights the distinctive features of the socially oriented market economy, the liberal market model, and the state-led industrial development model. Furthermore, it demonstrates the impact of education, innovation, human capital, and government policy on economic growth in these countries. The study emphasizes the importance of adapting the experience of developed countries to national conditions. The materials of the article are useful for students and researchers in the fields of economics, public administration, and international relations.*

Keywords: *International experience, development models, European countries, United States of America, South Korea, socio-economic development, market economy, innovation, human capital, government policy.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi va innovatsion siyosatini takomillashtirishda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish modellari ko'plab mamlakatlar uchun samarali namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu referatda mazkur hududlarning asosiy rivojlanish tajribasi va modellarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Jahonda an'anaviy, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslar hajmi qisqarib borayotgan sharoitda iqtisodiyotni innovatsion omillar asosida barqaror o'sishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni innovatsion omillar hisobiga ta'minlashda Shveysariya, Shvetsiya, Niderlandiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Singapur, Finlyandiya, Germaniya va Irlandiya (global innovatsion indeks bo'yicha yetakchi) kabi mamlakatlarda boy tajriba to'plangan. Dunyo aholisining o'sib borishi, ekologiyani yomonlashuvi, investitsion faollikning kuchayishi, iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilash, inson kapitali va eng ilg'or, yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tishni taqozo etmoqda. Zero, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak." Darhaqiqat, O'zbekistonda innovatsion menejment strategiyalarini amalga oshirishda xorijiy tajribani o'rganish va ularning isbotlangan ijobiy jihatlari yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Mamlakat Tovar eksporti tarkibida



yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, innovatsiyalarni amaliyotga qo'llashni jadallashtirish va tijoratlashirish shular jumlasidan. Innovatsion rivojlangan davlatlar AQSH va Janubiy Koreyaning mazkur yo'nalishdagi tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

1. Yevropa davlatlari tajribasi va rivojlanish modeli

Yevropa davlatlarining rivojlanish modeli asosan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslanadi. Ushbu modelda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, aholi farovonligi va inson huquqlari ustuvor hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanat saqlanadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, aholining ijtimoiy himoyasi kuchli rivojlangan. Masalan, Germaniya, Shvetsiya va Fransiya davlatlarida bepul yoki arzon ta'lim, majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy etilgan.

Yevropa modeli yana bir muhim jihati — barqaror rivojlanish va ekologik siyosatga katta e'tibor qaratilishidir. "Yashil iqtisodiyot", qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish Yevropa siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2. Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) tajribasi va modeli

AQSh rivojlanish modeli asosan liberal bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Ushbu modelda xususiy mulk, tadbirkorlik erkinligi va raqobat muhim o'rin tutadi. Davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashadi, ammo strategik sohalarda tartibga soluvchi rolni bajaradi.

AQSh dunyodagi yetakchi innovatsion markazlardan biri hisoblanadi. Silikon vodiysi, yirik ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar texnologik taraqqiyotning asosiy drayveri hisoblanadi. Ta'lim tizimi raqobatbardosh bo'lib, oliy ta'lim muassasalari mustaqil faoliyat yuritadi.

Shuningdek, AQSh tajribasida startaplar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi, venchur kapital tizimi innovatsiyalarni tez joriy etish imkonini beradi.

3. Janubiy Koreya tajribasi va rivojlanish modeli

Janubiy Koreya qisqa tarixiy davrda agrar mamlakatdan yuqori texnologiyali sanoat davlatiga aylangan noyob tajribaga ega. Uning rivojlanish modeli davlat boshchiligidagi industrial rivojlanish tamoyiliga asoslangan.

Davlat tomonidan uzoq muddatli strategik rejalashtirish amalga oshirilgan, yirik sanoat guruhlar (chaebol) qo'llab-quvvatlangan. Samsung, Hyundai, LG kabi kompaniyalar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchiga aylangan.

Janubiy Koreyada ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilgan. Aholining bilim darajasi yuqori bo'lib, ilm-fan va texnologiyaga yo'naltirilgan kadrlar



tayyorlanadi. Raqamli texnologiyalar, IT va elektronika sohalarida Janubiy Koreya dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

1980 yilda AQSHning patent va savdo belgilari to'g'risidagi Bey-Doul aktiga (Bayh-Dole Act) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi milliy innovatsiya tizimida "uch yoqlama spiral" modeli shakllanib, takomillashishiga sabab bo'ldi. Hozirda AQSHda innovatsion korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning 3 ta asosiy davlat dasturi mavjud: birinchisi - kichik biznesning innovatsion tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash dasturi (The Small Business Innovation Research Program – SBIR); ikkinchisi - kichik biznesning innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish dasturi (The Small Business Technology Transfer Program – STTR); uchinchisi - kichik biznes uchun investitsion kompaniyalar tashkil etish dasturi (The Small Business Investment Company – SBIC). Janubiy Koreyaning innovatsion rivojlanish tarixini bir necha bosqichga ajratish mumkin: 1. Birinchi bosqich Li Cin Man prezidentligi davriga (1948-1960 y.) to'g'ri kelib, unga xos bo'lgan xususiyat davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasi shakllanganligidir. Buning natijasida ushbu davrda bir qator yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, jumladan, yirik monopolistik korxonalar - "Samsung", "Laki Goldstar (LG)", "DEU", "Xende" kabi kompaniyalar shu davrda tashkil topdi. Koreya iqtisodiyotida davlatning iqtisodiy siyosati shakllanishining ikkinchi bosqichi 1961-1979 yillarni qamrab oladi. Bu davr Koreya iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganlik modeli asosida jadal rivojlanish davri bo'ldi. 3. Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanishida uchinchi bosqich 1980-1987 yillarni qamrab olib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. maqsadida Daedeok (Daedeok Science Town) shaharchasi tashkil etildi. 4. To'rtinchi bosqich 1987-1992 yillarga to'g'ri keladi, Davlat tomonidan texnologik rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish maqsadi qo'yildi. 5. Iqtisodiy rivojlanishning keyingi bosqichi Osiyo moliyaviy inqirozi va uning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'lik bo'ldi. Hukumat yordam so'rab Xalqaro valyuta fondiga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Mamlakatning moliyaviy, korporativ va davlat sektorlarida, mehnat bozorida keng islohatlar dasturi amalga oshirildi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar oqimi ko'paydi, mamlakat XVF bergan 13,5 mlrd. dollar karqini to'liq to'lab berdi. Agar inqirozdan avval mamlakat valyuta zaxirasi 9 mlrd. doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 550 mlrd. doll.ni tashkil etdi.

Koreya davlati ITTKI sohasida mustahkam xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Ushbu yo'nalishdagi loyihalarning asosiy qismi AQSH (34 %) va Yaponiya (15 %) bilan amalga oshirilsa, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropa mamlakatlari bilan ham aloqalar o'rnatilgan. Masalan, 2006 yilda Koreya Respublikasi va Yevropa Ittifoqi tomonidan ITTKI sohasidagi



loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish uchun KORANET (the Korean scientific cooperation network with the European Research Area), KESTCAP (the KoreaEU Science and Technology Cooperation Advancement Programme) va KORRIDOR (Stimulating and facilitating the participation of European researchers in Korean R&D programs) nomli loyihalari bo'yicha shartnomalar imzolangan. Ushbu loyihalar quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni belgilaydi: nanotexnologiyalar va yangi innovatsion materiallarni yaratish; axborot va kommunikatsiya texnologiyalari: yangi texnologiyalar, internet-texnologiyalar va robot texnikacini rivojlantirish; energetika. AQSH va Janubiy Koreya mamlakatlarida innovatsion boshqaruv strategiyalari ahamiyatini atroflicha tadqiq etish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: • xalqaro amaliyotda mamlakatlar milliy innovatsiya tizimini shakllantirish bo'yicha turli modellar mavjud. Ayniqsa, AQSH Ctenford universiteti profecori Genri Iskovis tomonidan taklif qilingan "Uch yoqlama spiral" (Triple Helix) modeli eng samarali modellardan hisoblanadi, AQSHning milliy innovatsiya tizimi ushbu modelga asoslanadi; AQSHda innovatsion rivojlanishni amalga oshirishda ta'lim muassasalari yetakchilik qilib, ular bevosita innovatsion iqtisodiyot bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu quyidagi o'zaro bog'liqlikda tashkil etiladi. 1-bo'g'in: ta'lim muassasalari, 2-bo'g'in: ilmiy markazlar; laboratoriyalar, ilmiy tadqiqot institutlari; 3-bo'g'in: innovatsion klasterlar; AQSHda 1980 yillarga kelib, milliy innovatsiya tizimining konseptual asoslari shakllandi. AQSHning milliy innovatsiya tizimi, yuqorida ta'kidlanganidek, davlat, universitet va tadbirkorlar o'rtasidagi uzviy aloqalardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosini yirik texnoparklar, biznes-inkubatorlar, venchur jamg'armalar, maxsus iqtisodiy zonalar va moliya-sanoat guruhlari tashkil etadi. Bugungi kunda Janubiy Koreyaning 1000 dan ortiq innovatsion loyihalarida AQSH, Kanada, YEI, Yaponiya, Xitoy, Isroil va Rossiya kabi davlatlarning ishtirok etishi, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun yaratilgan innovatsion muhit ham yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Janubiy Koreya iqtisodiyoti eksportga asoslangan bo'lib, tahlil qilingan davrda uning ulushi YAIMga nisbatan 50 %dan yuqori ko'rcatkichni tashkil etgan.

By кўп jihatdan u rivojlangan mamlakatlarni (o'rtacha 25-45 %) ham ortda qoldirayotganini ta'kidlash kerak. Shuningdek, eksportning $\frac{1}{2}$ qicmida ortiq qismi yuqori texnologiyali innovatsion tovar, ish va xizmatlarni tashkil etishi mamlakatning raqobatdoshligini yanada oshirmoqda. Janubiy Koreya innovatsion siyosatining ayrim jixatlarini mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llanilishi jahon bozorida munosib o'rin egallash imkonini beradi. Ya'ni, milliy iqtisodiyotda ilmiy ishlanmalarga bo'lgan ichki ehtiyojning kamligini hisobga olish zarur. O'z navbatida, bunday holat ilmiy ishlanmalarning iqtisodiy manfaatdorligini kamaytiradi. Ushbu yo'nalish rivojlanishiga salbiy



ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqot instituti va markazlarning xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq; Innovatsion rivojlangan mamlakatlar tajribasi negizida O'zbekistonda innovatsion menejment strategiyalarini amalga oshirishning quyidagi jihatlarini: • davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning soliq, boj-tarif, moliyakredit tizimini innovatsion rivojlanish modeli talablari va rivojlanish sur'atlariga zudlik bilan moslashtirish zarur; • innovatsion mahsulot ishlab chiqarish subyektlariga xorijiy investorlar, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar va davlat tashkilotlariga soliqqa tortish, boj-tarif siyosatini qo'llash, kreditlashda alohida rag'batlantiruvchi yondashuv tizimni ishlab chiqish zarur

4. Xalqaro modellarni taqqoslash va umumiy xususiyatlar

Yevropa, AQSh va Janubiy Koreya modellarini taqqoslaganda quyidagi umumiy jihatlar kuzatiladi:

- Ta'lim va ilm-fanga katta sarmoya kiritilishi
- Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash
- Davlat va bozor mexanizmlarining muvozanati
- Inson kapitalini rivojlantirishga ustuvorlik berilishi

Farqli jihatlar esa davlatning iqtisodiyotdagi roli, ijtimoiy siyosat darajasi va bozor erkinligi bilan bog'liq.

Hozirgi globallashtirish sharoitida mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo mamlakatlari turli tarixiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning muvaffaqiyatli tajribasi boshqa davlatlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish modellari jahon amaliyotida samarali deb e'tirof etilmoqda.

Ushbu davlatlar qisqa vaqt ichida iqtisodiy o'sishga erishgan, inson kapitaliga katta e'tibor qaratgan hamda innovatsion taraqqiyotni ta'minlay olgan.

Shu bois ularning tajribasini chuqur tahlil qilish va milliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur referatda Yevropa, AQSh va Janubiy Koreyaning rivojlanish modellari, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda umumiy jihatlari yoritib beriladi.

1. Xalqaro rivojlanish modellari tushunchasi

Rivojlanish modeli — bu mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan strategiya va mexanizmlar majmuasidir. Har bir davlat o'zining tabiiy resurslari, aholisi, tarixiy tajribasi va geosiyosiy o'rniga qarab muayyan modelni tanlaydi.

Xalqaro amaliyotda quyidagi asosiy rivojlanish modellari mavjud:



- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti;
- liberal bozor iqtisodiyoti;
- davlat boshchiligidagi industrial rivojlanish modeli;
- innovatsion va raqamli iqtisodiyot modeli.

• Yevropa davlatlari asosan ijtimoiy yo'naltirilgan modelni qo'llasa, AQSh liberal bozor iqtisodiyotini tanlagan. Janubiy Koreya esa davlat boshchiligidagi industrial model orqali rivojlanishga erishgan.

Yevropa davlatlarida qo'llanilayotgan rivojlanish modeli ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu modelda davlat aholining turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan qatlamlarni himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya sohalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Masalan, Skandinaviya davlatlarida (Shvesiya, Norvegiya, Daniya) yuqori soliq tizimi mavjud bo'lsa-da, aholi bepul ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanadi. Yevropa tajribasining yana bir muhim jihati — huquqiy davlat va demokratik boshqaruv tizimining rivojlanganligidir. Qonun ustuvorligi, inson huquqlari va ochiqlik iqtisodiy o'sish uchun qulay muhit yaratadi.

Yevropa davlatlari ta'lim tizimini rivojlantirishga katta mablag' ajratadi. Boloniya jarayoni orqali oliy ta'lim tizimi standartlashtirilgan bo'lib, talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik mobilligi ta'minlangan. Ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsiyalarga sarmoya kiritish Yevropa iqtisodiyotining muhim omili hisoblanadi. "Horizon Europe" kabi dasturlar orqali fan, texnika va innovatsiya sohalari qo'llab-quvvatlanadi. Bu esa raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari rivojlanish modeli

AQSh rivojlanish modeli erkin bozor iqtisodiyoti va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan. Davlat iqtisodiy jarayonlarga kam aralashadi, ammo qonunchilik va moliyaviy nazorat orqali bozor barqarorligini ta'minlaydi.

AQShda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi biznes g'oyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratilgan. Soliq imtiyozlari, venchur kapital va startup tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan hisoblanadi.

AQSh tajribasida innovatsiya va texnologiyalar

Amerika Qo'shma Shtatlari dunyodagi eng yirik innovatsion markaz hisoblanadi. Silikon vodiysi, NASA, Google, Apple, Microsoft kabi kompaniyalar texnologiya taraqqiyotini belgilab bermoqda.

Oliy ta'lim muassasalari — Garvard, MIT, Stenford universitetlari nafaqat ta'lim, balki ilmiy tadqiqot markazlari sifatida ham faoliyat yuritadi. Universitet–biznes–davlat hamkorligi innovatsiyalarni tezkor joriy etish imkonini beradi.



Janubiy Koreya rivojlanish modeli

Janubiy Koreyaning rivojlanish tajribasi "iqtisodiy mo'jiza" sifatida e'tirof etiladi. XX asrning ikkinchi yarmida u qashshoq agrar davlatdan yuqori texnologiyali industrial mamlakatga aylandi. Bu modelda davlatning iqtisodiyotdagi roli juda kuchli bo'lgan. Uzak muddatli rejalar, eksportga yo'naltirilgan siyosat va sanoatlashtirish strategiyasi asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

7. Chebollar va davlat siyosati

Janubiy Koreyada yirik sanoat guruhlar — chebollar (Samsung, Hyundai, LG) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ular mamlakat iqtisodiyotining lokomotiviga aylandi. Davlat tomonidan kreditlar, soliq imtiyozlari va tashqi bozorlarga chiqishda yordam ko'rsatildi. Bu esa milliy kompaniyalarning global raqobatbardoshligini oshirdi.

8. Ta'lim va inson kapitali

Janubiy Koreya ta'limga katta e'tibor qaratgan davlatlardan biri hisoblanadi. Aholining savodxonlik darajasi yuqori, STEM fanlariga ustuvorlik berilgan. Ta'lim tizimi mehnat bozori talablariga moslashtirilgan bo'lib, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlanadi.

9. Modellarni solishtirma tahlili

Yevropa, AQSh va Janubiy Koreya modellarini solishtirganda quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi:

- Yevropa — ijtimoiy barqarorlikka;
- AQSh — bozor erkinligiga;
- Janubiy Koreya — davlat boshqaruviga tayangan.

Barcha modellarda ta'lim, innovatsiya va inson kapitali umumiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yevropa, AQSh va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'z tarixiy, madaniy va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib rivojlanish modelini shakllantiradi. Ushbu modellarni chuqur o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba asosida olib borilgan islohotlar barqaror iqtisodiy o'sish va jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo mamlakatlari turli tarixiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning muvaffaqiyatli tajribasi boshqa davlatlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari va Janubiy Koreya tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish modellari jahon amaliyotida samarali deb e'tirof etilmoqda. Yevropa, AQSh va Janubiy



Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali rivojlanish uchun yagona universal model mavjud emas. Har bir davlat o'z milliy xususiyatlariga mos holda xalqaro tajribadan foydalanishi lozim. Ushbu tajribalarni chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. -Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2024. b.20.
2. "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" gi O'RQ 17.08.2017.
3. The Global Innovation Index 2017 «Effective Innovation Policies for Development». Tech Connection 2017, Taylor Vinters Eden Hall September 22, 2017
4. Hughes S. Making dollars out of DNA. The first major patent in biotechnology and the commercialization of molecular biology, 1974– 1980 // Isis; an international review devoted to the history of science and its cultural influences. 92 (3). 2001.
5. Jahon banki ma'lumotlari. www.worldbank.org;
http://www.koreaherald.co.kr/NEWKHSITE/data/html_dir/2009/09/16200909160034
6. Korean Support System for Venture Business Creation (2013) Report of the SMBA Knowledge Sharing Program ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 110
7. Abulkasimov X.P., Rasulov T.S. Osobennosti nauchno-texnicheskoy politiki stran SNG, Blijnego i Srednego Vostoka.Uchebnoye posobiye.-T., TashGIV, 2017.-S.82-83.. asp
8. Gomboyev A. B. Innovatsionnaya politika Respubliki Koreya: istoricheskaya i territorialnaya spetsifika (1966–2009 gg.)// Vestnik Buryatskogo Gosudarstvennogo Universiteta, 7/2016.- S.263-267.